





# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “MARKAZIY OSIYO – YEVROPA ITTIFOQI” BIRINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

## Boshlanishi 1-betda

Yevropa Ittifoqi asosiy institutlari rahbarlariga o‘zaro anglashuv va Markaziy Osiyoda integratsiya va barqaror taraqqiyot jarayonlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlayotgani uchun yana bir bor minnatdorlik bildiraman.

Men bu zalda an’anaviy sheriklarimiz — Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Reno-Basso va Yevropa investitsiya banki vakillarini ko‘rib turganimdan ham xursandman. Ushbu moliya institutlarining “Kelajakka sarmoyalar” shiori ostida o‘tayotgan bugungi sammitimizning vazifa va qarorlarini ilgari surishdagi roli o‘ta muhim, deb hisoblayman.

Shu o‘rinda bundan sakkiz yil oldin O‘zbekiston bilan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki munosabatlari to‘xtab yotganini qayd etishni istar edim. Bugun esa biz bankingning eng yirik benefitsiarlaridan birimiz.

Hurmatli hamkasblar! Ashxobodagi uchrashuvlar yakunlari bo‘yicha bizning vazirlar va ekspertlarimiz ko‘p tomonlama hamkorlikning barcha asosiy yo‘nalishlarini qamrab olgan sammit kun tartibini tayyorlashdi.

Shuningdek, biz bugun Markaziy Osiyo duch kelayotgan zamonaviy ekologik tahdidlarga bag‘ishlangan Samarqand iqlim forumi yalpi sessiyasida ham birgalikda ishtirok etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Bizning uchrashuvimiz jadal va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan global jarayonlar sharoitida o‘lmoqda.

Biz geosiyosiy ziddiyatlar, xavfsizlik muammolari, yirik mintaqaviy mojaroalarning hamda barqaror taraqqiyotga nisbatan ijtimoiy va iqtisodiy tahdidlarning kuchayishiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Ayonki, hech bir mintaq keng xalqaro hamkorliksiz bu qadar murakkab masalalarni mustaqil holda hal etishga qodir emas.

Shu munosabat bilan ta’kidlashni istardimki, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi an’anaviy sheriklar bo‘lib, o‘zaro yaqin hamkorlik uchun talab faqat o‘sib bormoqda. Biz ham Yevropa tomoni kabi xalqaro huquqning tamoyil va me‘yorlariga so‘zlashib bildiramiz.

Ukraina atrofidagi vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etish bo‘yicha muzokaralar jarayonlari boshlanganini olqishlaymiz va to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Oldinda juda murakkab va yechimi oson bo‘lmagan masalalar turganini tushunamiz.

Biroq diplomatik sa‘y-harakatlar va siyosiy qarorlar qabul qilishdan boshqa muqobil yo‘lni biz ko‘rmayapmiz.

Hurmatli hamkasblar! Umumiy siyosiy irodamiz tufayli barqaror va ortga qaytmas tus olgan Markaziy Osiyodagi chuqur transformatsiya jarayonlari ko‘pqirrali hamkorligimizni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mintaqa mamlakatlari o‘rtasida ishonch va yaxshi qo‘shnichilik mustahkamlanmoqda, keng ko‘lamli hamkorlik va kooperatsiya

aloqalari kengaymoqda. Bundan yetti-sakkiz yil avval buning uchun hatto sharoit ham yo‘q edi. Ba’zi mamlakatlar o‘rtasidagi chegaralar yopiq edi. Na savdo, na tranzit, na biznes, hech qanday gumanitar almashuvlar yo‘q edi. Munosabatlar shunchaki muzlatib qo‘yilgandi. O‘shanda hech kim yaqin kelajakda biz Yevropa yetakchilari bilan muzokaralarda mintaqamizni birgalikda namoyon etishimizni tasavvur ham qila olmas edi.

Markaziy Osiyoning ochiqligi va barcha sheriklar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikka tayyor ekani mintaqada xavfsizlik va farovonlikni ta’minlashning eng muhim shartiga aylandi.

Shu yil sentabr oyida biz Toshkentda mintaqadagi davlat rahbarlarining yetinchi Maslahat uchrashuvini o‘tkazimiz va uning doirasida umumiy kun tartibidagi barcha dolzarb vazifalarni ochiq va konstruktiv hal qilamiz.

Bugungi sammitimiz arafasida tarixiy voqealar bo‘lib o‘tganini alohida qayd etishni istardim. Bu o‘rinda qarg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida davlat chegaralari masalasi to‘liq hal etilgani va delimitatsiya qilish bo‘yicha kelishuvlar imzolangan haqida bormoqda.

Yana bir bor hurmatli hamkasblarim Emomali Sharipovich Rahmon va Sadir Nurg‘ojoyevich Japarovni samimiy tabriklayman.

Biz birgalikda mintaqada yirik investitsiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirayotganimizni ta’kidlash joiz. Bunday loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shma investitsiya jamg‘armalari va kompaniyalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Mintaqada ichki savdo hajmi oshib bormoqda. Ularni rag‘batlantirish uchun chegaraldoli savdo zonalar yaratilmoqda. Bularning barchasi mamlakatlarimiz va butun mintaqamizning barqaror iqtisodiy taraqqiyotiga imkon yaratayotganini ta’kidlashni istar edim.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari hisob-kitoblariga ko‘ra, mintaqaviy yalpi ichki mahsulotning o‘sishi bu yil olti foizgacha yetadi va bu boshqa mintaqalardagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan sezilarli darajada yuqoridir. Jumladan, O‘zbekistonda sanoatlashtirish, infratuzilmalarga sarmoyalar kiritish, iqtisodiyotni liberallashtirish va biznesni qo‘llab-quvvatlash hisobidan barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlanmoqda.

Umumintaqaviy o‘ziga xoslikni shakllantirish, shuningdek, madaniy-gumanitar va ta’lim bo‘yicha almashuvlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan hamkorlikdagi ishlarimizni alohida ta’kidlamoqchiman.

Biz mamlakatlarimizda yetakchi milliy o‘quv muassasalarining filiallarini ochyapmiz. Xorijiy sayyohlar uchun yagona Markaziy Osiyo vizasi loyihasini ilgari suryapmiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Bizning ilk sammitimiz Qozog‘iston va Qirg‘izistonda muvaffaqiyatli o‘tgan Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi yetakchilarining ikkita uchrashuvining mantiqiy davomidir. Ushbu muloqotlar har ikki tomonning manfaatlarini tushunish va sheriklikning umumiy yo‘nalishlarini belgilab olish uchun

foydali bo‘ldi. So‘nggi yillarda Yevropa Ittifoqi ham o‘zaro hamkorlik sezilarli faollashgani kuzatilayotganini qayd etmoqchiman.

Keyingi yetti yilda Markaziy Osiyo mamlakatlarining Yevropa Ittifoqi bilan o‘zaro tovar aylanmasi hajmi bir necha barobar o‘sib, 54 milliard yevroga yetdi. Hamkorlikning samarali platformalari ishga tushirildi. Barcha muhim yo‘nalishlarda vazirlar ishtirokida majlislar, forumlar, sammitlar va konferensiyalar doimiy o‘tkazib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ushbu uchrashuv ko‘pqirrali munosabatlarimiz rivojida yangi bosqichning o‘ziga xos boshlanish nuqtasi bo‘lishi lozim, deb hisoblayman.

Shu munosabat bilan, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda hamkorlikdagi ishlarimizning biz uchun ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tishni istar edim.

**Birinchi. Bu — siyosiy muloqotlarni mustahkamlash yo‘lidagi sa‘y-harakatlar va investitsiyalar, ko‘p tomonlama hamkorlikning huquqiy va institutsional asoslari.**

Sammit yakunlari bo‘yicha Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida strategik sheriklik o‘rnatish haqida tarixiy qaror qabul qilindi. Qabul qilinadigan hujjatning qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish va qabul qilish zarur, deb hisoblaymiz.

Ishonchim komilki, bizning strategik sherikligimiz aniq qarorlar, loyiha va dasturlar bilan boyitilishi kerak. Shu munosabat bilan, bizning ikki mintaqamiz o‘rtasida sheriklik va hamkorlik bo‘yicha to‘laqonli Bitimni imzolash masalasini ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

Biz, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi muhim masalalar bo‘yicha umumiy pozitsiyalarni ishlab chiqish uchun tashqi siyosat idoralari rahbarlari uchrashuvlarini doimiy o‘tkazib borish, parlamentlararo aloqalarni faollashtirish va “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” parlamentlararo hamkorlik forumini ta’ sis etish hamda uning ilk tadbirini shu yil kuzda O‘zbekistonda o‘tkazish, yetakchi tahlil markazlari hamkorligini kengaytirishni taklif etamiz.

Sammitimizni har ikki yilda bir marta o‘tkazish bo‘yicha taklifni to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Kelishuvlarimizni o‘z vaqtida amalga oshirishni ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlab masqadida navbatdagi yig‘ilishimizga qadar sammit kotibiyati funksiyasini o‘z zimmasiga olishga tayyormiz.

**Ikkinchi. Iqtisodiyot va texnologik modernizatsiyaga investitsiyalar kiritish o‘zaro hamkorligimizning ustuvor mezon bo‘lishi lozim.**

Biz iyun oyining boshida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklikda Toshkent xalqaro investitsiya forumini o‘tkazamiz. Ushbu tadbirda Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari bilan umumiy qiymati 30 milliard yevrodan ortiq bo‘lgan joriy loyihalar portfelinii taqdim etish niyatidamiz.

Ta’kidlash o‘rinliki, bugungi kunda Yevropaning barcha biznes “kapitanlari”, sanoat va innovatsiya sohalari yetakchilari O‘zbekiston va mintaqamizdagi boshqa

mamlakatlarda muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Ular orasida “TOTAL”, “Siemens”, “Linde”, “Airbus”, “BASF”, “IDF”, “Orano”, “OTP Group” va boshqa ko‘plab korporatsiyalar bor.

Forum jarayonida ikki mintaqaning investitsiyaviy imkoniyatlariga bag‘ishlangan alohida sessiyani o‘tkazishni taklif etaman. O‘zbekistonda Yevropa kompaniyalari uchun Mintaqaviy sanoat parki konsepsiyasi taqdimotini ham ana shu sessiyada o‘tkazishni reja qilyapmiz.

Shu kunlarda Toshkentda Yevropa investitsiya banki ofisini ochish to‘g‘risida imzolangan bitim Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan Markaziy Osiyoga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini rag‘batlantiradi.

Yevropalik sheriklarimiz yana bir tashabbusimizni — “yashil” energetika, innovatsiyalar, transport, infratuzilma sohalarda va agrar sektorda yirik mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun Investitsiya platformasini ishga tushirish bo‘yicha taklifimizni qo‘llab-quvvatlashga umid qilamiz.

Bundan tashqari, mamlakatlarimizning iqtisodiy manfaatlarini yaqinlashtirish bo‘yicha qaror yangi takliflarni bildirimoqchimiz. Bu eng avvalo, investitsiyalarni himoya qilish va rag‘batlantirish to‘g‘risidagi ko‘ptomonlama bitimni imzolash, xususi sektor vakillarini keng jalb etgan holda, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” qo‘shma savdo palatasini ishga tushirish, kichik va o‘rta biznes loyihalarini, birinchi galda, xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shma mintaqaviy dasturlarni qabul qilishga qaratilgandir.

O‘zbekistonda o‘zaro transport bog‘liqligi bo‘yicha navbatdagi Iqtisodiy forum va Investorlar forumini qabul qilishga tayyormiz.

Shuningdek, eksport qiluvchilarimiz salohiyatini oshirish, laboratoriyalar, standartlashtirish va sertifikatlashtirish markazlarini yaratish uchun Yevropa Ittifoqining texnik ko‘magini kengaytirish muhimdir.

**Uchinchi. Sammit davomida strategik mineral resurslar sohasida hamkorlik va investitsiyalarni chuqurlashtirish bo‘yicha qaror qabul qilindi.**

Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston geologiya-razvedka, strategik xomashyo materiallari konlarini o‘zlashtirish va ularni chuqur qayta ishlab sohasida yuqori texnologik ishlab chiqarish tarmoqlarini yaratish borasida Yevropadagi yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlik qilish bo‘yicha katta ijobiy tajribaga ega. Biz bu yo‘nalishda Yevropa Ittifoqi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz.

Ushbu mahsulotlarni, shuningdek, tayyor sanoat va qishloq xo‘jaligi tovarlarini Yevropa bozorlariga yetkazib berish uchun samarali transport yo‘laklarini yo‘qligi bunda asosiy to‘siq hisoblanadi. Jumladan, Transkaspий transport koridorini kengaytirish va yuk bilan ta’minlash uchun o‘zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni va biznes uchun manfaatli sharoitlarni ishlab chiqish zarur. Ishonaman,

ushbu vazifalar “Global darvoza” umumiyevropa dasturining maqsadlariga to‘liq mos keladi.

Shu munosabat bilan, kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqish uchun Yevropa Ittifoqi shafeligida ushbu yo‘nalishda joylashgan mamlakatlarning transport vazirlari uchrashuvini chaqirishni taklif etamiz.

**To‘rtinchi. “Yashil” energetika va ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan investitsiyalar strategik ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.**

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidan Yevropaga elektr energiyasini yetkazib berish bo‘yicha xalqaro loyihani to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Sammit arafasida ushbu loyihani amalga oshirish bo‘yicha tegishli bitimni ratifikatsiya qildik.

Ta’kidlash o‘rinliki, biz 2030-yilga borib mamlakat energiya balansida qayta tiklanadigan energiya ulushini 54 foizga yetkazishni, 24 ming megavatt “yashil” quvvatlarni ishga tushirishni rejalashtirmoqdamiz.

“Toza” energiya bo‘yicha “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sherikligining yo‘lga qo‘yilishi bilan o‘zaro hamkorligimizning muhim platformasi yaratilishi mumkin.

Shuningdek, “uglerod kreditlari” loyihalarini ishlab chiqishni moliyalashtirish va ularning bozorini rivojlantirish uchun turdosh vazirliklar rahbarlari darajasida ishchi guruhni ta’ sis etishni taklif etamiz. Bu yo‘l o‘tishi kutilayotgan Iqlim forumi chog‘ida mintaqaning “Yashil” taraqqiyot konsepsiyasini taqdim etamiz.

**Beshinchi. Inson kapitaliga investitsiyalar ta’lim va madaniy-gumanitar sohalardagi almashuvlarni kengaytirish imkonini beradi.**

Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha “Erasmus+” dasturlari doirasida mintaq mamlakatlari uchun maxsus kvotalarni joriy etish ushbu maqsadga erishishga xizmat qilishi mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ilmiy-ta’lim hamkorligini kengaytirish uchun O‘zbekistonda “Ufq — Yevropa” dasturi ofisini ochishga tayyormiz. Bundan tashqari, sun’iy intellekt, ma’lumotlar “katta bazalari”, raqamlashtirish, kosmik tadqiqotlar sohasida ilmiy va texnologik almashuvlar bo‘yicha qo‘shma dasturni ishlab chiqishni taklif etamiz.

O‘zbekiston, shuningdek, mintaq mamlakatlari raqamli ta’lim sohasida Yevropa harakatlar dasturiga qo‘shish, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yetakchi universitetlari o‘rtasida sheriklik borasida “Yo‘l xaritasi” ni amalga oshirish bo‘yicha tashabbuslarni ilgari suradi.

Yevropalik mutaxassislar ishtirokida “Lazgi” milliy baletining sahnalashtirilishi madaniyat sohasidagi kooperatsiyang yuqori misoli bo‘ldi. Yevropadagi Luver, Berlin Yangi muzeyi, Vena Butunjahon muzeyi kabi yirik muzeylarda Markaziy Osiyoning tarixiy merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Ta’kidlash joizki, joriy yilning kuzida ushbu zaminda, Samarqandda o‘tadigan, so‘nggi qirg‘ yilda Parijdan tashqarida ilk bor bo‘ladigan UNESCO Bosh konferensiyasi chog‘ida

barcha xorijiy sheriklarimizni mintaqamiz xalqlarining boy madaniyati va san’ati bilan yanada keng tanishtirishni xohlar edik.

Shuningdek, joriy yilda Buxoroda birinchi “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sayyohlik forumini o‘tkazishni reja qilyapmiz.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasini joriy etish asosida “Bir tur — butun mintaq” konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, mintaqamiz sayyohlari uchun viza rejimini soddalashtirish masalasini ko‘rib chiqishda yevropalik sheriklarimizning ko‘magiga tayanamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Xavfsizlikka nisbatan umumiy tahdidlar, xususan, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, kiberjinoiyatchilik, narkotrafik va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda hamkorlik tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Yevropalik sheriklarimizning terrorizmga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha muloqotni yo‘lga qo‘yish haqidagi taklifini qo‘llab-quvvatlaymiz. “BOMCA” va “CADAP” dasturlari doirasida o‘zaro amaliy hamkorlikni kengaytirish muhim, deb hisoblaymiz.

Afg‘onistonni tinch rivojlantirish masalalarida siyosiy maslahatlashuvlarni davom ettirishga tayyormiz. Ming afsuski, jahon hamjamiyati ushbu mamlakat hududidan kelib chiqadigan barcha tahdidlarni yetarlicha baholay olmaypti.

Afg‘on tomonini mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga, jumladan, investitsiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, ijtimoiy sohani qayta tiklash yo‘li bilan faol jalb etish zarur, deb hisoblaymiz. Qabul qilingan majburiyatlarini bajarish uchun xalqaro hamjamiyatning amaldagi afg‘on hukumati bilan konstruktiv muloqot o‘rnatish muhimligini tushunishi va qo‘llab-quvvatlashiga umid qilamiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! So‘zimizning nihoyasida bizning tashabbus va kelishuvlarimizni amalga oshirish mexanizmlarini joriy etish muhimligini alohida qayd etishni istar edim.

Shu munosabat bilan, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” formatida Bosh vazir o‘rinbosarlari darajasida har yili uchrashuvlari o‘tkazib boriladigan Sheriklik qo‘mitasini ta’ sis etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Qadri do‘stlar! Barchangizga ochiq, ishonchli va konstruktiv muloqot uchun yana bir bor chuqur tashakkur izhor etaman.

Ishonchim komilki, Yevropaning yetakchi institutlari va moliya tashkilotlari rahbarlari Markaziy Osiyoning umumiy pozitsiyaga ega ekaniga, ishonchli va mas’uliyatli sherik sifatida keng ko‘lamli hamkorlikka tayyor ekaniга amin bo‘lishdi.

Barchangizni ikki mintaq o‘rtasida strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risida tarixiy qaror qabul qilinishi bilan tabriklayman.

Erisilgan barcha kelishuvlar va ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish uchun Sammit kotibiyatiga, ekspertlar bilan birgalikda, bir oy muddatda, biz ishchi tartibda tasdiqlashimiz mumkin bo‘lgan “Yo‘l xaritasi” ni tayyorlash taklifini bildiraman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

# MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA ITTIFOQI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARDA MUTLAQO YANGI, TARIXIY BOSQICHNI BOSHLAB BERAYOTGAN SIYOSIY VOQEA

## Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda mintaqada yirik investitsiya va infratuzilma loyihalari birgalikda amalga oshirilayotgani, ularni qo‘llab-quvvatlash uchun investitsiya fondlari va kompaniyalari faoliyat yuritayotgani ta’kidlandi. Mintaqa ichidagi savdo ko‘paymoqda, chegaraldoli savdo zonalar tashkil etilmoqda. Bularning barchasi mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

YTTB prognozlariga ko‘ra, joriy yilda mintaqaviy yalpi ichki mahsulot hajmi 6 foizgacha oshadi, bu boshqa mintaqalardagi o‘rtacha ko‘rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori.

Umummintaqaviy o‘ziga xoslikni shakllantirish, shuningdek, madaniy-gumanitar va ta’lim almashuvini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha birgalikdagi ishlar alohida qayd etildi. Mamlakatlarimizda yetakchi milliy ta’lim muassasalarining filiallari ochilmoqda. Xorijiy sayyohlar uchun yagona Markaziy Osiyo vizasi loyihasi ilgari surilmoqda.

Mintaqa va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashgani kuzatilmoqda. So‘nggi yetti yilda mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi bir necha barobar o‘sib, 54 milliard yevroni tashkil etdi. Samarali hamkorlik platformalari ishga tushirildi. Barcha muhim yo‘nalishlar bo‘yicha vazirlar yig‘ilishlari, forumlar va sammitlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zbekiston yetakchisi o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan hamkorlikni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini bayon qildi. Avvalo, siyosiy muloqotni, ko‘p tomonlama

hamkorlikning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash muhimligi ta’kidlandi.

Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida strategik sheriklik o‘rnatish haqida qabul qilinayotgan hujjat qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish va qabul qilish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Strategik sheriklikni aniq qarorlar, loyiha va dasturlar bilan boyitish maqsadida ikki mintaqamiz o‘rtasida sheriklik va hamkorlik bo‘yicha to‘laqonli Bitimni imzolash masalasini ko‘rib chiqish taklif etildi.

O‘zbekiston Prezidenti xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi muhim masalalar bo‘yicha umumiy pozitsiyalarni ishlab chiqish uchun tashqi siyosat idoralari rahbarlari uchrashuvlarini doimiy o‘tkazib borish; parlamentlararo aloqalarni faollashtirish va “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” parlamentlararo hamkorlik forumini ta’ sis etish hamda uning ilk tadbirini shu yil kuzda O‘zbekistonda o‘tkazish; yetakchi tahlil markazlari hamkorligini kengaytirishni taklif etdi.

Kelishuvlarini o‘z vaqtida amalga oshirishni ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlab masqadida navbatdagi yig‘ilishga qadar sammit kotibiyati funksiyasini O‘zbekiston o‘z zimmasiga olishga tayyorligi bildirildi.

Iqtisodiyot va texnologik modernizatsiyaga investitsiyalar kiritish o‘zaro hamkorlikning ustuvor mezon sifatida belgilandi.

Bugungi kunda Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari bilan amalga oshirilayotgan loyihalar portfeli 30 milliard yevrodan oshdi.

Navbatdagi Toshkent investitsiya forumi doirasida ikki mintaqaning investitsiyaviy imkoniyatlariga bag‘ishlangan alohida sessiya o‘tkazish va Yevropa kompaniyalari uchun O‘zbekistonda Mintaqaviy sanoat parki konsepsiyasini taqdimot qilish taklif etildi.

Kuni kecha Toshkent shahrida Yevropa investitsiya banki ofisini ochish to‘g‘risida bitim imzolangan, bu Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan Markaziy Osiyoga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini rag‘batlantirishga xizmat qilishi mamnuviyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari “yashil” energetika, innovatsiyalar, transport, infratuzilma va agrar sohadagi yirik mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun Investitsiya platformasini ishga tushirish tashabbusini ilgari surdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Prezidenti bir qator boshqa tashabbuslarni aytdi. Investitsiyalarni himoya qilish va rag‘batlantirish to‘g‘risida ko‘p tomonlama bitim imzolash, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” qo‘shma savdo palatasini ishga tushirish, Kichik va o‘rta biznes, xotin-qizlar tadbirkorligi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shma mintaqaviy dasturni qabul qilish shular jumlasidan.

Joriy yilda O‘zbekiston Transport bog‘liqligi bo‘yicha navbatdagi Iqtisodiy forum va Investorlar forumini o‘tkazishga tayyor.

Ekspertchilarimiz salohiyatini oshirish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish laboratoriyalari va markazlarini tashkil etish uchun Yevropa Ittifoqining texnik ko‘magini kengaytirish masalalariga ham e’tibor qaraldi.

Strategik mineral resurslar sohasida hamkorlik va investitsiyalarni chuqurlashtirish

o‘zaro manfaatli sheriklikning yana bir istiqbolli yo‘nalishi sifatida qayd etildi.

O‘zbekiston bo‘rada Yevropaning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha ijobiy tajribaga ega. Shu bilan birga, ushbu mahsulotlarni, shuningdek, tayyor sanoat va qishloq xo‘jaligi tovarlarini Yevropa bozoriga yetkazib berish uchun samarali transport yo‘laklari mavjud emasligi boradagi sheriklikni kengaytirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu ma’noda, Transkaspий transport yo‘lagini kengaytirish va undan foydalanish uchun muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar va qulay sharoitlarni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi.

— Ishonaman, ushbu vazifalar “Global darvoza” umumiyevropa dasturining maqsadlariga to‘liq mos keladi,— dedi davlatimiz rahbari.

Shu maqsadga Yevroititfoq shafeligida ushbu yo‘nalishda joylashgan mamlakatlar transport vazirlarining uchrashuvini chaqirib, o‘zaro kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqish taklif qilindi.

“Yashil” energetika va ekologik barqarorlikka sarmoya kiritish strategik ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Markaziy Osiyodan Yevropaga elektr energiyasi yetkazib berish bo‘yicha xalqaro loyihani to‘liq qo‘llab-quvvatlashi ta’kidlandi.

Mamlakatimizda 2030-yilga qadar energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish, 24 ming megavatt “yashil” quvvatlarni ishga tushirish rejalashtirilgan.

“Toza” energiya bo‘yicha “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sherikligining yo‘lga qo‘yilishi bilan o‘zaro hamkorlikning muhim platformasi yaratilishi mumkin.

Loyihalarni moliyalashtirish va “uglerod kreditlari” bozorini rivojlantirish masalalarini ishlab chiqish uchun ishchi guruh tuzish taklif qilindi.



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SAMARQAND XALQARO IQLIM FORUMIDAGI NUTQI

## Boshlanishi 1-betda

Hech shubhasiz, bugungi kunda Yevropa Ittifoqi iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish masalalarini ilgari surish va himoya qilishda global yetakchidir. Biz kelgusida ham bu sohada amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga tayyormiz.

Hurmatli xonimlar va janoblar!  
Iqlim o‘zgarishi muammolari oziq-ovqat va energiya xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mintaqa aholisi 25-yildan so‘ng 100 million kishidan ortiq kutilayotgan bir vaqtda unumli yerlar tez sur‘atlar bilan qisqarib bormoqda.

Bugungi kunda mintaqadagi umumiy yer maydonining 20 foizdan ortig‘i degradatsiyaga uchragan. Chorak asrdan keyin hosildorlik uchdan bir qismga kamayib ketishi mumkin.

Shu munosabat bilan, o‘rmon xo‘jaligi va agrar sohaning moslashuvchanligini oshirish, shuningdek, “Ufq — Yevropa” dasturi doirasida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun ilmiy salohiyatimizni birlashtirish hayotiy muhim masala, deb hisoblayman.

O‘zbekiston degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini qisqartirish va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish maqsadida “Yashil makon” loyihasi doirasida keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib bormoqda. Bundan tashqari, Orolbo‘yining 2 million gektardan ortiq cho‘l hududlarida qurg‘ochlikka chidamli o‘simliklar ekildi.

Har yili Navro‘z bayrami arafasida daraxt ekish bo‘yicha “Markaziy Osiyoning yashil belbog‘i” mintaqaviy aksiyasini o‘tkazishni taklif etaman.

Aminmanki, uning tashkil etilishi bizning ezgu an‘anamizga va tabiiy ofatlarga qarshi kurashdagi birligimiz timsoliga aylanadi.

Hurmatli forum ishtirokchilari!  
O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotning resurslarni tejaydigan va ekologik toza modeliga o‘tishni boshladi.

Bu boradagi eng muhim yo‘nalishlardan biri — “yashil” energetikadir. Yaqin besh yilda qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan energiya ulushini 54 foizga yetkazishni mo‘ljallayapmiz. Bu atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini 16 million tonnaga qisqartirish imkonini beradi.

Biz O‘zbekistonning Parij bitimi doirasida bug‘ gazlari chiqarishni 35 foizga kamaytirish bo‘yicha olgan majburiyatini muddatidan oldin bajarish uchun barcha sa‘y-harakatlarimizni ishga solishimizni ta‘kidlab o‘tmoqchiman.

Shu bilan birga, biz bu marrada to‘xtab qolmoqchi emasmiz.  
Moliyalashtirish, texnologiyalar va kompetensiyalarni safarbar qilish maqsadida Toshkent shahrida Yevropa Ittifoqining “Suv — Energiya — Iqlim o‘zgarishi” deb nomlangan tashabbusining kotibiyatini tashkil qilishni taklif etamiz.

Bundan tashqari, umumiy strategik vazifalarni amalga oshirish doirasida mazkur forumda mintaqaning “yashil” taraqqiyot konsepsiyasi taqdim etiladi. Ishonamanki, mazkur hujjatning qabul qilinishi va amalga oshirilishi Markaziy Osiyoning ekologik yo‘nalishdagi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Hurmatli delegatsiyalar a‘zolari!  
Tahsilga ko‘ra, Amudaryo va Sirdaryoda suv oqimi kamayishi natijasida 2040-yilga borib Markaziy Osiyo suv taqchilligiga duch keladi.

Biz allaqachon insoniyatning eng yirik fojialaridan biri — Orol dengizi qurishi oqibatlarini boshdan kechirmoqdamiz.

Biz suv resurslarini tejash maqsadida irrigatsiya tizimlarini betonlashtiryapmiz. Suvni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarish bo‘yicha sanoat bazasini yaratdik, sug‘oriladigan yerlarning deyarli yarmida ana shunday texnologiyalarni joriy etdik. (Bu salkam ikki million gektar yer maydoni

demakdir). Bunday chora-tadbirlar natijasida o‘tgan yili 8 milliard kub metr suvni tejashga muvaffaq bo‘ldik.

Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish borasidagi sa‘y-harakatlarini birlashtirish va bu sohada mintaqaviy dasturni ishga tushirishga chaqiramiz.

Bu rejalamning barchasini ekspertlar muhokamasidan o‘tkazish uchun Orolbo‘yi mintaqasida xalqaro forum o‘tkazishni maqsad qilganmiz.

Shuningdek, muzliklarning holati va mintaqadagi tog‘ ekotizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni oldindan baholash uchun sun‘iy yo‘ldosh orqali uzluksiz kuzatuvlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha “Kopernik” dasturi doirasida Yevropa Ittifoqi bilan yaqin hamkorlikka umid qilamiz.

Toshkentdagi “Yashil universitet” bazasida yaratilgan Iqlim rezidensiyasi Markaziy Osiyoda kechayotgan iqlim jarayonlarini o‘rganish va monitoring qilish bo‘yicha umumiy ilmiy-eksperlik platformasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ertaga Nukus shahrida mintaqamizning ekologik muammolariga san‘at sohasidagi loyihalar orqali e‘tiborni jalb etishga qaratilgan Orol madaniyat sammiti o‘z ishini boshlaydi.

Qadrlid do‘stlar!  
So‘zimiz nihoyasida “Biz Yerni ajdodlarimizdan meros sifatida emas, balki farzandlarimizdan qarzga olganmiz”, degan mashhur hikmatli iborani eslatib o‘tishni istar edim. Bugungi kunda bizning vazifamiz — kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rishdan iborat.

Buning uchun muloqotlarni mustahkamlash, umumiy ezgu maqsadlar yo‘lida birlashgan barcha davlatlarning sa‘y-harakatlarini uyg‘unlashtirish zarur.  
E‘tiboringiz uchun rahmat.

# BARQAROR TARAQQIYOT VA FAROVONLIK UCHUN MINTAQAVIY BIRDAMLIK MUSTAHKAMLANADI

## Boshlanishi 1-betda

— Buning oqibatida bugun biz barchamiz iqlim inqirozlarining salbiy ta‘sirleri — o‘rmon yong‘inlari va cho‘llanish miqyosi ortib borayotgani, muzliklar qisqarayotgani, suv resurslari taqchilligi kuchayayotgani, havo sifati yomonlashayotganini his qilib turibmiz, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Mintaqa mamlakatlari tomonidan Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishiga moslashish strategiyasi ishlab chiqildi va bir ovozdan ma‘qullandi.

Orol dengizi qurishining oqibatlarini yumshatish, suvdan oqilona foydalanish, “toza” energiya manbalari kengaytirish dasturlari doirasida yevropalik sheriklar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilinayotgani ta‘kidlandi. Bunday sheriklik Markaziy Osiyoning barqaror “yashil” taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shadi.

Shu ma‘noda, iqlim o‘zgarishini himoya qilish va unga qarshi kurashish masalalarini ilgari surishda global yetakchi bo‘lgan Yevroititfoq bilan amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Iqlim o‘zgarishi muammolari oziq-ovqat va energiya xavfsizligi bilan uzviy bog‘liq ekani alohida ta‘kidlandi.

Unumdor yerlar keskin kamayib bormoqda, bugungi kunda mintaqadagi jami yer maydonining 20 foizdan ortig‘i degradatsiyaga uchragan. Chorak asrdan so‘ng hosildorlik uchdan bir qismga kamayishi mumkin.

— Shu munosabat bilan, o‘rmon xo‘jaligi va agrar sohaning moslashuvchanligini oshirish, shuningdek, “Ufq — Yevropa” dasturi doirasida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun ilmiy salohiyatimizni birlashtirish hayotiy muhim masala, deb hisoblayman, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Prezidentimiz O‘zbekistonda degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini qisqartirish va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida ma‘lumot berdi.

“Yashil makon” dasturi doirasida keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Orolbo‘yining 2 million gektardan ortiq cho‘l hududlarida qurg‘ochlikka chidamli o‘simliklar ekilgan.

Har yili Navro‘z bayrami arafasida “Markaziy Osiyoning yashil belbog‘i” daraxt

ekish mintaqaviy aksiyasini o‘tkazish taklif qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotni rivojlantirishning resurslarni tejaydigan va ekologik toza modeliga o‘tish masalasiga ham e‘tibor qaratdi.

Bu sohada asosiy yo‘nalishlardan biri — “yashil” energetika.

Kelgusi besh yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan bo‘lib, bu issiqxona gazlari chiqindilari hajmini qariyb 16 million tonnaga kamaytirish imkonini beradi.

— Biz O‘zbekistonning Parij bitimi doirasida bug‘ gazlari chiqarishni 35 foizga kamaytirish bo‘yicha olgan majburiyatini muddatidan oldin bajarish uchun barcha sa‘y-harakatlarimizni ishga solishimizni ta‘kidlab o‘tmoqchiman, — dedi davlatimiz rahbari.

Ushbu yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlarining davomi sifatida moliyalashtirish, texnologiyalar va vakolatlarni safarbar qilish uchun Toshkent shahrida Yevropa Ittifoqining “Suv — Energiya — Iqlim o‘zgarishi” deb nomlangan tashabbusining Kotibiyatini tashkil etish taklifi ilgari surildi.

Bugungi forumda taqdim etiladigan Mintaqaning “Yashil” taraqqiyot konsepsiyasi alohida qayd etildi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga to‘xtalar ekan, O‘zbekiston Prezidenti 2040-yilga borib Markaziy Osiyo mamlakatlari Amudaryo va Sirdaryo oqimining kamayishi ta‘sirida yuqori darajadagi suv taqchilligiga duch kelishini ma‘lum qildi.

Suv resurslarini tejash maqsadida irrigatsiya tarmoqlarini betonlash ishlari olib borilayotgani, suvni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarish bo‘yicha sanoat bazasi yaratilayotgani, ular sug‘oriladigan yerlarimizning deyarli yarmida, ya‘ni qariyb 2 million gektarda joriy etilgan ta‘kidlandi. Bunday chora-tadbirlar natijasida o‘tgan yili qariyb 8 milliard kub metr suv iqtisod qilindi.

— Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish borasidagi sa‘y-harakatlarini birlashtirish va bu sohada mintaqaviy dasturni ishga tushirishga chaqiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu masalalarning barchasini ekspertlar darajasida muhokama qilish uchun Orolbo‘yi mintaqasida suvni tejaydigan texnologiyalar bo‘yicha xalqaro forum o‘tkazish rejalashtirilgan.

Shuningdek, muzliklar holatini uzluksiz sun‘iy yo‘ldosh orqali kuzatish va mintaqaning tog‘ ekotizimlari uchun xavflarni erta aniqlash bo‘yicha “Kopernik” dasturi doirasida Yevropa Ittifoqi bilan yaqindan hamkorlik qilishdan manfaatdorlik bildirildi.

Toshkentdagi “Yashil universitet” negizida tashkil etilgan Iqlim rezidensiyasi Markaziy Osiyodagi iqlim jarayonlarini o‘rganish va monitoring qilish bo‘yicha umumiy ilmiy-eksper platforma vazifasini bajarishi mumkin.

Shu bilan birga, 5-aprel kuni Nukusda mintaqamizning ekologik muammolariga san‘at loyihalari orqali e‘tibor tortishga qaratilgan Orol madaniyat sammiti o‘z ishini boshladi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari “kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rish” umumiy maqsad ekanini yana bir bor eslatdi.

— Buning uchun muloqotlarni mustahkamlash, umumiy ezgu maqsadlar yo‘lida birlashgan barcha davlatlarning sa‘y-harakatlarini uyg‘unlashtirish zarur, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Forumda Markaziy Osiyo davlatlari prezidentlari va Yevropa Ittifoqi asosiy institutlari rahbarlari so‘zga chiqib, mavzu yuzasidan o‘z fikrlari, takliflarini bildirdi.

Yalpi majlisdan so‘ng forum sessiyalarda o‘z ishini davom ettirdi.

Markaziy Osiyo va Yevropa ittifoqi yetakchilari birgalikda Orol madaniyat sammiti ekspozitsiyasiga tashrif buyurdilar.

Ko‘rgazmada Orol ekotizimini tiklash, hududning madaniy merosini asrab-avaylash va barqaror rivojlanishga ko‘maklashishga qaratilgan noyob tashabbuslar namoyish etildi. Bu yerda vizual, sensor va interfaol vositalar orqali Orolbo‘yining tabiiy va madaniy boyligi bilan tanishish mumkin.

Ko‘rgazmadan me‘morlik va landshaft fotografiyasiga ixtisoslashgan mashhur fotosuratchi Ivan Baanning asarlari, Qoraqalpog‘iston uchun xos o‘simlik hisoblangan qamishdan yaratilgan floristik kompozitsiya, shuningdek, Orolbo‘yining an‘anaviy mahsulotlari — saksuvul urug‘i, chig‘anoqlar, tabiiy tuz, quritilgan isirig‘, naqshli namat va boshqa ko‘plab eksponatlar o‘rin olgan.

O‘ZA

# XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

## Boshlanishi 1-betda

SPEKA dasturining Maqsadli jamg‘armasini tez fursatda ishga tushirish muhim ekani ta‘kidlandi.

BMT Bosh kotibi o‘rinbosari, BMTning aholi punktlari bo‘yicha dasturi (BMT-Xabitat) ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbax bilan uchrashuv chog‘ida ushbu nufuzli institut bilan shaharlarni barqaror rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va aholi turmush sifatinii oshirish borasida ko‘p qirrali sheriklikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

BMTning yuqori darajali vakili mamlakatimizda “aqli” va “yashil” shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholi uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan urbanizatsiya sohasidagi islohotlarni ijobiy baholadi.

Shaharlarni boshqarishga zamonaviy raqamli yechimlarni joriy qilish, “yashil” qurilish standartlarini ishlab chiqish, shahar muhitida iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha maxsus dasturni ishga tushirish borasidagi hamkorlikni kengaytirish muhimligi qayd etildi.

O‘zbekistonda Butunjahon tozalik kunini o‘tkazish va Toshkentda tashkilot ofisini ochish masalalari ko‘rib chiqildi. Amaliy hamkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

BMT Bosh kotibining o‘rinbosari, Cho‘llanishga qarshi kurashish konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiav bilan uchrashuvda mamlakatimiz va mintaqamizda cho‘llanish, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish sohasida BMTning ushbu nufuzli tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

BMT vakili O‘zbekiston rahbarining forumdagi nutqini yuqori baholab, iqlim tahdidlariga qarshi kurashish bo‘yicha

ilgari surilgan tashabbuslarning dolzarbligi va Markaziy Osiyoning “Yashil” taraqqiyot konsepsiyasi o‘z vaqtida taqdim etilganini ta‘kidlandi.

O‘tgan yil avgust oyida BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan o‘rmonlarni tiklash bo‘yicha rezolyutsiyani bir ovozdan ma‘qullagan, shuningdek, yerlar degradatsiyasining oldini olish bo‘yicha milliy maqsadlarni ishlab chiqish boshlangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Toshkent shahridagi “Yashil universitet” negizida Yerlar degradatsiyasi va cho‘llanishga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro ilmiy tarmoqni tashkil etishga Konvensiya ekspertlari jalb qilinishi belgilandi.

Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv avvalida vazir davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad Ol Maktum va vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Qabul qilingan “yo‘l xaritasi” asosida ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyida BAAga amalga oshirgan tashrifining tarixiy yakunlari, natijada ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro savdo hajmi, qo‘shma korxonalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri parovozlar soni barqaror oshib bormoqda. Amirliklarning yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar portfeli qariyb 20 milliard dollarni tashkil etmoqda.

O‘zbekiston hududlarida “yashil” energetika, elektrotexnika, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, kommunal va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlarga tayyorgarlik masalalari ham ko‘rib chiqildi.

So‘ngra davlatimiz rahbari O‘zbekiston — Saudiya Ishbilarmonlar kengashi hamrais, “ACWA Power” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyanni qabul qildi.

Saudiya Arabiston kompaniyalari bilan amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz O‘zbekistonning “yashil” energetika sohasida strategik investor bo‘lgan “ACWA Power” kompaniyasi bilan samarali sheriklik jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Bugungi kunda kompaniya bilan amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar portfeli 15 milliard dollarga yetdi.

O‘tgan yil dekabrda Buxoro viloyatida har bir 500 megavattli 2 ta shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi, shuningdek, Samarqand viloyatida umumiy quvvati

1 gigavatt bo‘lgan ikkita quyosh stansiyasi va Toshkent viloyatida energiya saqlash tizimlarini qurish loyihalari boshlandi.

“Yashil” energetika, infratuzilma, farmatsevtika, issiqlik va suv ta‘minotini modernizatsiya qilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshqa ustuvor yo‘nalishdagi loyihalarini jadal amalga oshirish muhimligi ta‘kidlandi.

Shu ma‘noda, joriy yilda Samarqand shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va biznes forumiga puxta tayyorgarlik ko‘rish zarurligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

# ISTIQBOLLI LOYIHALARNI MOLIALASHTIRISH BO‘YICHA SA‘Y-HARAKATLARNI BIRLASHTIRUVCHI PLATFORMA

**Samarqand sammiti tarixiy ahamiyatga ega. Boisi, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi yetakchilarini bir manzilda jamlagan xalqaro sammitda global beqarorlik, iqtisodiy inqiroz va iqlim o‘zgarishi tahdidlari kuzatilayotgan bir sharoitda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, ushbu muammolarga samarali yechim topish orqali farovonlikka erishish yo‘llari izlandi.**

Yevropaliklar bilan faol hamkorlik natijasida mintaqalarimiz o‘rtasida savdo va investitsiya aloqalari izchil rivojlanmoqda. Natijada Markaziy Osiyo mamlakatlarining YEI bilan savdo aylanmasi to‘rt barobar oshgan.

“Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” formatidagi sammit miqyosi va institutsional qamrovi jihatidan o‘ziga xos platforma. 27 davlatni birlashtirgan YEI Markaziy

Osiyo bilan mintaqalararo darajada tizimli hamkorlikni kuchaytirmoqchi. Demak, Samarqand sammiti mintaqalararo strategik sheriklikni yo‘lga qo‘yish va o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirishda muhim muloqot maydoni bo‘ldi.

Markaziy Osiyoga energiya resurslari yuqori va “yashil” energetikani rivojlantirish bo‘yicha ulkan salohiyatga ega mintaqalardan biri sifatida qaraladi. Shunday ekan,

# KATTA IQTISODIY IMKONIYATLAR MAYDONI

**Olti asrdan ortiq vaqt ilgari Sohibqiron Amir Temur bevosita Samarqandda turib, Yevropa monarxlari bilan erkin va xavfsiz savdoni ta‘minlash maqsadida faol aloqalar o‘rnatgan edi. Oradan shuncha muddat o‘tib, yangi O‘zbekiston davrida yana ikki mintaqa aloqalarni qayta jadal rivojlantirmoqda.**

“Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitida mintaqalarimiz o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilinib, muhim kelishuvlarga erishildi.

Markaziy Osiyo hozir 80 million kishi yashaydigan, 450 milliard dollar qiymatidagi yalpi ichki mahsulotga ega hudud. Bu yerda 30 milliard barrel neft yoki bo‘lmasa, 20 trillion kub metr gaz zaxirasi, 4 ming gigavatt quyosh, 350 gigavatt shamol energiyasi

ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Nodir mineralar yetkazib beruvchi eng katta 20 davlatning asosiyarlari ham Markaziy Osiyoda joylashgan.

Yevropa Ittifoqi esa biz uchun 500 million odam yashaydigan, 19 trillion yevrolik yalpi ichki mahsulotga ega katta bozor. O‘zaro hamkorlik rivoji bizga juda katta iqtisodiy imkoniyatlar taqdim etadi. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, biz YEI bozoriga yuqori sifati, ekologik toza va mintaqa standartlariga javob beradigan mahsulotlarni ko‘proq

Yevropaning energetika barqarorligini ta‘minlashda mintaqamiz muhim ahamiyatga ega. Kaspiy va Qora dengiz ostidan kabel tortish orqali “yashil strategik yo‘lak” barpo etib, Markaziy Osiyodan Yevropaga “yashil” energiya eksport qilish mo‘ljallanayotgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Ushbu loyiha o‘zaro manfaatli energetik bog‘liqlikning mustahkam asosini yaratadi.

Ayni maqsadda Samarqand sammitida Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasida “Yashil hamkorlik” platformasini yaratish tashabbusi ilgari surildi. Mazkur platforma qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekotizimlarni tiklash va iqlim o‘zgarishining raqamli monitoringi sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha sa‘y-harakatlarini birlashtiradi.

Anvar MIRKOMILOV,  
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo‘lim boshlig‘i

yetkazib berishga tayyormiz. Bugun samarali transport-logistika yo‘laklarini rivojlantirish ahamiyati ortib bormoqda. Markaziy Osiyo Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi shunchaki ko‘prik emas, balki global iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. Avvalo, siyosiy muloqot, ko‘p tomonlama hamkorlikning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash muhimligi ta‘kidlandi. Strategik sheriklik o‘rnatish haqida qabul qilingan hujjat qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish va qabul qilish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Umuman olganda, Samarqand sammiti mintaqaning strategik ahamiyatini yanada oshirib, Yevropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo o‘rtasidagi munosabatlarni mazmun va sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga asos yaratgani bilan ahamiyatidir.

Rustam RASHIDOV,  
Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, professor

# PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 150-YUBILEY ASSAMBLEYASI

## YANGI O'ZBEKISTONDAGI DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING UMUMBASHARIY E'TIROFI IFODASIDIR

### O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva bilan suhbat

#### Yangi O'zbekiston ruhi

5-9-aprel kunlari mamlakatimiz eng nufuzli parlamentlararo anjumanga mezbonlik qiladi. Ayni damda dunyo nigohi davlatimizning parlament diplomatiyasidagi muvaffaqiyatlariga qaratilgan. Qariyb bir hafta mobaynida yurtimiz muhim geosiyosiy markaz, yirik xalqaro parlament tuzilmalarining teng huquqli a'zosi sifatida global muhokamalar maydoniga aylanadi. 190 ga yaqin mamlakat parlamentini birlashtirgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi. Bu shunchaki oddiy anjumana emas. Mazkur xalqaro tadbirga mezbonlik uchun parlamentarizm va barqaror rivojlanishning ijobiy tajribasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga tanlanadi. Yurtimizning bunday e'tirofiga sazovor bo'lishi — quvonchli holat, bir vaqtning o'zida katta mas'uliyat hamdir.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva bilan anjumana doirasida o'tkaziladigan tadbirlar, ularning mazmun-mohiyati, ahamiyati, O'zbekiston uchun xalqaro maydonda ochilayotgan imkoniyatlar xususida suhbatlashdik.

yetakchiligi, parlamentimiz faoliyatida yoshlarning ham roli va ishtiroki tobora mustahkamlanib borayotgani ushbu nufuzli tashkilot e'tirofida, shunday emasmi?

— Haq gapni aytingiz. Parlamentlararo Ittifoq o'z faoliyatida gender tenglik va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ushbu mavzular bu galgi yubiley assambleyasining kun tartibidan alohida joy olgan.

Mintaqamizda parlament sohasidagi bunday yirik va keng qamrovli tadbir ilk bor aynan O'zbekistonda o'tkazilayotgani bejiz emas. Bu, avvalo, O'zbekiston parlamentining barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishdagi faol ishtiroki, parlament darajasida inson huquqlarini himoya qilish va gender tenglik masalalarini izchil ilgari surishi hamda Yoshlar parlamenti faoliyati orqali yoshlar qonun ijodkorligi jarayonlariga keng jalb etilayotgani bilan izohlanadi.

Siyosatda gender tenglik va yoshlar ishtirokini kengaytirish masalalari Parlamentlararo Ittifoq faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri ekanini inobatga olsak, ushbu sohalarida erishilayotgan yutuqlarimiz bilan faxrlanishga to'la asos bor. O'zbekiston xotin-qizlarning qonunchilik jarayonlaridagi faol ishtirokini rag'batlantirish, yoshlarni qonun ijodkorligiga jalb etish borasida xalqaro namunaga munosib tajriba shakllantirilmog'da. Zero, bu yo'nalishlar butun dunyodagi demokratik taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmog'da.

Ma'lumki, dunyo hamjamiyatida 1997-yildan buyon Gender tenglik bo'yicha maxsus dastur amal qilmog'da, uning doirasida dunyo parlamentlarida xotin-qizlar ishtiroki monitoringi olib borilmog'da. 2024-yilda dunyo bo'yicha xotin-qizlar ulushi o'rtacha 26,7 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, mamlakatlar o'rtaacha bu ko'rsatkichda hali ham katta tafovut kuzatilmog'da.

Bugungi kunda milliy parlamentimizda ayollar ulushi sezilarli darajada oshib, Senat a'zolarining 27 foizini, Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizini xotin-qizlar tashkil etmog'da. Mazkur ko'rsatkich bilan O'zbekiston Osiyo mintaqasidagi eng yuqori natijani qayd etganini Parlamentlararo Ittifoq ham e'tirof etdi. Ya'ni, e'tirof qilingan "Parlamentdagi ayollar: 1995-2025-yillar" nomli hisobotga ko'ra, O'zbekiston Osiyo mintaqasida eng yuqori ko'rsatkichga, shuningdek, so'nggi 30 yil ichida ayol deputatlar sonining o'sishi bo'yicha ham mintaqada yetakchi bo'lib turibdi.

Shuningdek, Milliy parlamentlar bo'yicha xalqaro reyting ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston parlamentidagi xotin-qizlar ulushi bo'yicha 193 davlat orasida 49-o'rindan 34-o'ringa ko'tarildi. Bu esa mamlakatimizda demokratiya va gender tengligini ta'minlash yo'nalishida erishilgan muhim yutuqlardan biridir.

Parlamentlararo Ittifoq parlamentlari xotin-qizlar vakilligini oshirish bo'yicha samarali mexanizmlar, jumladan, murabbiylik dasturlari va xotin-qizlarning siyosatdagi ishtiroki uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishni joriy etishga chaqiradi.

Aytish kerakki, hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar parlamentlarida yosh siyosatchilar yetarlicha vakillikka ega emas. Parlament faoliyatiga yosh yetakchilarni jalb etish, siyosatchilarning yangi avlodini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar izchil davom ettirilmog'da. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada yoshlar masalasining alohida bosh darajasiga ko'tarilgani yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatiga ustuvor ahamiyat berilayotganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Yoshlarning qonun ijodkorligidagi faol ishtiroki boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, siyosiy jarayonlarni yanada ochiq va inkluziv asosda tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qilmog'da.

Assambleya doirasida yosh parlament a'zolarining global forumi va Xalqaro xotin-qizlar parlament forumi o'tkazilishi kutilmog'da. — O'tgan yili Osiyo xotin-qizlari forumi doirasida Oliy Majlis Senati va Parlamentlararo Ittifoq hamkorligining amaliy jihatlarini bo'yicha qator takliflar ilgari surilgan edi. Ularning xalqaro anjumana doirasida o'tkaziladigan tadbirlar kun tartibidan joy olgani qanchalik muhim ahamiyatga ega?

— O'tgan yilgi uchrashuvda muhokama etilgan qator masalalar o'z dolzarbligi va xalqaro ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu mavzular assambleyaning rasmiy kun tartibidan ham o'rinda olib boriladi. Agar davlatimiz siyosatining boshqa mamlakatlar uchun o'rnatilgan bo'lsa, oladigan jihatlarini inobatga olsak, ushbu mavzular doirasida aynan ana shunday yutuq va yotibalarimizni jahon hamjamiyatiga ochib berishga xizmat qiladi.

Xususan, aholini ijtimoiy himoyalash, kambag'allikni qisqartirish, qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta'minlash, gender tenglikka rioya etish borasida erishilgan natijalar yurtimizning mazkur yo'nalishda qanchalik jiddiy va izchil qadamlar tashlayotganini yaqqol tasdiqlaydi.



— Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi faoliyati tarixiga nazar tashlasak, bu nufuzli tashkilot, eng avvalo, xalqchil hokimiyat va xalq dardiga quloq tutadigan davlatchilik masalalariga alohida e'tibor qaratib kelayotganini ko'ramiz. Shu jihatdan assambleyaning yubiley anjumani aynan mamlakatimizda o'tkazilayotgani bejiz bo'lmasa kerak?

— Xabarimgiz bor, O'zbekistonning Parlamentlararo Ittifoqqa a'zoli 2017-yilda qayta tiklandi. Oradan o'tgan qisqa davr mobaynida mamlakatimiz parlamentarizm va barqaror rivojlanish yo'nalishlarida muhim tajriba to'pladi, amaldagi islohotlari bilan e'tirof etildi. Ayniqsa, bu boradagi yutuqlarimiz xalqaro tashkilotlar va qator xorijiy davlatlar tomonidan alohida e'tirof etilayotgani e'tiborga loyiq deb o'ylayman.

Darhaqiqat, xalqaro ahamiyatga ega bunday nufuzli tadbirning aynan yurtimizda o'tkazilayotgani o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Bu O'zbekistonning demokratik boshqaruv yo'lidan ishonch bilan ilgariylayotgani, siz ta'kidlagan xalqchil parlament tizimi va fuqarolik jamiyatining izchil taraqqiyoti etib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bu tadbir mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan tan olinayotganining yaqqol tasdiqi'dir.

Agar e'tibor beradigan bo'lsak, Parlamentlararo Ittifoq faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishdir. Ayni paytda mazkur yo'nalish yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati bilan ham chambarchas bog'liq. So'nggi yillarda mamlakatimizda inson shah'ni va qadr-qimmatini, huquq hamda erkinliklari, qonuniy manfaatlarini eng olib qadriyat sifatida belgilab olindi. "Odamlar tashvishi bilan yashash" tamoyili davlat siyosatining bosh mezoniga aylandi. Xalqimizning qonuniy talab va istaklarini amalga oshirish, fuqarolar irodasini hayotga tabiiq etish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanmog'da. Barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilmog'da.

Aynan shu jihatdan yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o'zi ekanini yana bir bor eslab o'tish o'rinni. Bu esa fuqarolar xohish-irodasi islohotlar poydevori va uning harakatlaniruvchi kuchiga aylanganining yorqin isbotidir.

"Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbadir". Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasida aks etgan ushbu norma orqali O'zbekistonda xalq hokimiyatchiligi tamoyili, ya'ni suverenitet tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai xalq ekanini teran huquqiy mazmunda ifoda etilib, mustahkam qonuniy asosga ega bo'ldi.

Yana shu muddada O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirishi to'g'risidagi norma ham belgilab qo'yilgan. Hech shubhasiz, bu me'yorlar xalqimiz xohish-irodasi va insonlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda Parlamentimiz xalqning siyosiy irodasini ifoda etuvchi chinakam demokratik institut sifatida maydonga chiqmog'da. Uning faoliyati doimo Prezidentimiz diqqat markazida. Bu bejiz emas. Davlatimiz rahbari parlament ishini chuqur bilgan, 15 yil

davomida deputat maqomida samarali faoliyat yuritgan inson sifatida uning har bir bosqichidan yaxshi xabardor.

Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan tarixiy Murojaatnomasidan so'ng parlament faoliyatida mutlaqo yangi davr boshlandi. Bugun esa parlamentning mamlakat siyosiy hayotidagi o'rni va ta'sirini ochiq-oydin ko'rib turibmiz. Bu, albatta, O'zbekistonni rivojlantirishning yangi siyosiy yo'lidagi ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishda keng jamoatchilik ishtiroki, ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yillar davomida xalqaro parlament tashkilotlari hamda milliy parlamentlar rahbarlari bilan juda ko'p bor uchrashdi, parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish yo'nalishida qator taklif va tashabbuslar bilan chiqdi. Forum va anjumana doirasidagi yillik ravishda tabiiq yo'llab, xorijiy davlatlarga rasmiy tashriflari chog'ida ham parlament rahbarlari bilan alohida uchrashuvlar o'tkazishni an'anaga aylantirdi. Har tomonlama hamkorlikni qo'llab-quvvatlayotgani, shubhasiz, O'zbekiston parlamentining nufuzi va xalqaro maydondagi o'rini mustahkamlashga xizmat qilmog'da.

Bu sa'y-harakatlarning barchasi Prezidentimiz milliy parlamentarizm, uning rivojlanish salohiyati va davlat boshqaruvidagi o'rni uchun ishonch bilan yondashishining yorqin ifodasidir. Zero, davlatimiz rahbarining ta'birini aytganda, "Kuchli parlament va xalq vakillik organlari — Yangi O'zbekistonning tayanchidir".

— E'tirofli jihat, Prezidentimizning tashabbuslari tufayli parlamentimizning xalqaro aloqalari geografyasi izchil kengayib bormog'da. Bu orqali O'zbekistonning milliy manfaatlarini jahon miqyosida himoya qilish uchun yangi, ravon va mustahkam yo'l ochilayotganini ham alohida qayd etish lozim.

— Albatta, bugun xorijiy davlatlar parlamentlari bilan hamkorligimiz havas qilgulik darajada. Xalqaro parlamentlararo tashkilotlar faoliyatida Oliy Majlisning faol ishtiroki yaqqol sezilmog'da. Parlamentimiz xalqaro maydonda demokratik tashabbuslarini erkin va dadil ilgari surmog'da.

O'tgan yillar mobaynida Oliy Majlisning xorijiy mamlakatlar parlamentlari bilan hamkorlik guruhlari va komissiyalari faoliyatini jonlantirish, amaliy aloqalarni kengaytirish bo'yicha qator samarali chora-tadbirlar olib borildi. Ushbu guruhlarda O'zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizdagi islohotlar haqida jahon hamjamiyatiga xolis va haqqoniy axborot yetkazish, shuningdek, xorijiy parlamentlar bilan tajriba almashish orqali o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilmog'da. Ayniqsa, so'nggi besh yilda amalga oshirilgan shiddatli, keng qamrovli va ta'sirchan islohotlar milliy parlamentarizm tizimining mustahkam poydevorini yaratdi.

— Keling, yana suhbatimizning bosh mavzusiga qaytsak. Yurtimizda bo'lib o'tadigan mazkur assambleya doirasida butun dunyo parlamentlari aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, huquq ustuvorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va o'z tajribalari bilan o'rtoqlashadi. Muhokama etiladigan mavzular orasida gender tenglikni ta'minlash, ilm-fan va texnologiya, parlamentlar faoliyatida yoshlar o'rni masalalari ham bor. Demak, gender tenglik bo'yicha mamlakatimizning Osiyoda

Ayniqsa, mamlakatimizda ijtimoiy himoya, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar e'tirofiga munosib desak, mubolag'a bo'lmaydi. Haqiqatan, keyingi yillarda mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini qamrab olish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmog'da. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida har bir fuqaroni o'zi va farzandlari kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro'yog'ga chiqarish uchun imkoniyat yaratish hamda ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish ko'lamlarni kengaytirish orqali oilalarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi sabablarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmog'da.

Yurtimizda ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Soha tubdan isloh qilinib, ijtimoiy yordamning aniq, maqsadli va manzillilgini ta'minlashga qaratilgan yangicha yondashuv va mexanizmlar joriy qilindi. Milliy quvonchilik bazasi mustahkamlandi, xalqaro standartlar asosida takomillashirildi. Xalqaro tashkilotlarning 13 ta konvensiyasi ratifikatsiya qilindi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish Milliy strategiyasi, uning maqsadli indikatorlari belgilandi. Sohaning institutsional asoslari isloh etildi. Ijtimoiy himoya sohasida davlat siyosatini amalga oshiradigan yangi tuzilma — Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Joylarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ish boshlandi. Bu institutlar ijtimoiy himoya mahalla darajasida tashkil etish, ijtimoiy xizmat va yordamlarni kompleks yondashuv asosida ko'rsatish, aholining og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolishining oldini olish, ijtimoiy himoyaning manzillilgini va samaradorligini oshirishga xizmat qilmog'da.

Sohada keng ko'lami islohotlar boshlangan davrdan beri kambag'allik darajasi deyarli 3 barabarga qisqardi (23 foizdan 8,9 foizgacha).

O'zbekiston mazkur yo'nalishdagi amaliy sa'y-harakatlari bilan ijtimoiy adolat va munosib mehnat tamoyillarini xalqaro doirada ham dadil ilgari surib kelmog'da. BMT bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan "Ish o'rinarlini yaratish va ijtimoiy himoya Global akseleratori" va Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktorining Ijtimoiy adolat uchun global koalitsiyasini tashkil etish kabi tashabbuslarida mamlakatimiz birinчилardan bo'lib faol ishtirok etib kelmog'da.

Anjumana doirasidagi tadbirlarda bu borada batafsil fikrlar ilgari surildi. Shu ma'noda, ijtimoiy taraqqiyotga erishish, adolati jamiyatni barpo etishda parlamentlar ishtirokini kengaytirish va faolligini oshirish bilan bog'liq masalalarning muhokama etilishi har tomonlama maqsadga muvofiqdir. Ular asosida yangi chora-tadbirlar, barcha davlatlar uchun birday manfaatli bo'lgan, tegishli yo'nalish bo'yicha parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqiladi va ular qabul qilinadigan yakuniy hujjatlarda o'z ifodasini topadi.

— Mazkur anjumanda dunyoning 140 ga yaqin mamlakati, 15 ta kuzatuvchi davlat, shuningdek, 30 dan ortiq xalqaro va parlamentlararo tashkilotlardan ikki mingdan ortiq delegat ishtirok etishi kutilmog'da. Bu nafaqat juda yirik, balki tarixiy ahamiyatga ega voqeadir. Albatta, bu kabi yirik anjumanning yurtimizda o'tkazilayotgani Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligidagi

parlamentarizmning rivojlanishi, shu bilan birga, O'zbekistonning ochiqlik va xalqaro hamkorlikka asoslangan yangi siyosiy yo'lining yorqin ifodasidir...

— Ilgarilari biz dunyoga talpinar edik. Bugun esa ko'z o'ngimizda dunyo O'zbekistonga talpinmog'da. Bu holat nafaqat quvonarli, balki har bir yurtidoshimizda faxr va hayajon tuyg'usini yanada oshiradi. Buning yaqqol misoli sifatida so'ngi uch yilda Samarqand shahri mezonlik qilgan bir qator xalqaro anjumana, shu jumladan, kuni kecha o'tkazilgan "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti ham martaqning imijini, xalqaro miqyosdagi e'tirof, deb ishonch bilan aytay olamiz.

5-9-apreldagi tadbirlar davomida ikki tomonlama uchrashuvlar, kelishuvlar, yo'l xaritalari, xalqaro bitimlar, davlatlar va parlamentlar bilan O'zbekiston rahbarining o'zaro kelishuvlari belgilangan. Xalqaro shartnomalarning bajarilishida parlament ishtiroki masalalari ko'rib chiqildi.

Konferensiyada Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Turkiya davlatlar parlament assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi davlatlarining Parlamentlararo assambleyasi, Arab parlamentlararo ittifoqi, Yevropa parlamenti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti parlament assambleyasi, Osiyo parlament assambleyasi, Afrika va Arab dunyosidagi parlament guruhlari va yangi tashkilatlangan kengashlar uyushmasi kabi qator nufuzli tashkilotlar rahbarlari, vakillari ishtirok etadi.

Shu o'rinda qalbidan ko'tarilgan bir hisni aytmasam bo'lmaydi. Biz shunday olijanob rahbarga ega ekanimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bu iftixorga sabablar bisyor, albatta. Ammo aynan shu anjumana doirasida ro'y berayotgan bir holi sizlar bilan samimiyat ila o'rtoqlashgim keldi. 7-aprel kuni Prezidentimiz tomonidan alohida chiqishlar rejalashtirilmog'da.

Qiziq! shundaki, ushbu uchrashuv e'lon qilingach, ko'plab mehmonlar, xorijiy parlamentlar va delegatsiya rahbarlari o'z safar rejalari o'zgartirdi. Ular Prezidentimiz bilan shaxsan ko'rishni, u kishining nutqini tinglash va bevosita muloqotda bo'lish ishtiyoqida ekanliklarini bildirdi. Bu esa O'zbekistonga bo'lgan xalqaro ishonch, davlatimiz rahbari shaxsiyatiga nisbatan yuksak hurmat va ehtiramning yorqin ifodasidir.

Juda ko'p xorijiy parlamentlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari Prezidentimiz bilan uchrashish istagini bildirdi. Ularning "Dunyoga quloq yoyib, shaxdam odimlayotgan yurtingiz rahbari bilan bevosita suhbatlashmoqchimiz, dilimizdagi tilaklarni shaxsan yetkazishni istaymiz", degan so'zlari barchamizni to'qlantirib yubordi. — "Ijtimoiy rivojlanish va adolat uchun parlament harakati" shiori ostida bo'lib o'tadigan ushbu xalqaro anjumana mavzusi shaxsan Prezidentimiz taklifiga binoan tanlangan. Aynan shu borada, ya'ni ijtimoiy taraqqiyot, adolat va xalq manfaatlarini ifoda etishda parlamentning o'rni borasidagi O'zbekiston tajribasi butun dunyoga taqdim etilayotganini o'zi katta faxrdir. Shu o'rinda tabiiq savol tug'iladi: umuman olganda, bunday xalqaro anjumana ahamiyati nimada?

— Fikrimni bayon etishdan oldin sizning savolingizga yana bir savol bilan javob berishni istardim: bunday xalqaro tadbirlar O'zbekistonga nima beradi? Aytish lozimki, bu nafaqat yurtimiz, balki butun Markaziy Osiyo

uchun faxrli va strategik jarayondir. Zero, biz bugun faqat milliy emas, balki mintaqaviy miqyosda dolzarblik kasb etayotgan muammo va masalalarga yuz tutayotgan mamlakatga aylandik.

Mana, yaqinda — 31-mart kuni O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston Prezidentlari Xo'jand shahrida uchrashib, uch davlat chegarasining tutash nuqtasiga oid shartnomani imzoladi. Bu hujjat nafaqat davlatlararo ishonchni, balki mintaqaga kelajagiga bo'lgan umumiy qarashni ham ifoda etadi. Shu haftadagi yana bir muhim voqea — Samarqandda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti. Uning doirasida mintaqaviy davlatlari rahbarlari va YEI yetakchilari uchrashib, o'zaro hamkorlikni qay bosqichga olib chiqishni maqsad qildilar.

Bunday tashabbus va uchrashuvlar — azaliy orzu-umidlarimizning amaliy ifodasi. Bu jarayonlarda mintaqaviy xalqlar nafaqat tomoshabin, balki siyosiy subyektlar sifatida qatnashmog'da. Markaziy Osiyo dunyo oldida o'z yuzi, o'z so'zi va o'z yo'li bilan namoyon bo'lmoqda. Bu uning yangi o'zligi shakllanayotganidan dalolat beradi.

150-assambleya umumiy mavzusiga kelsak, "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" degan shior ostida kambag'allikni qisqartirish, munosib mehnat, ijtimoiy integratsiya va aholining qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish kabi ko'plab dolzarb masalalar muhokama qilinishi bilan ahamiyatlidir. Sababi keyingi yillarda dunyoda yuz berayotgan turli global muammolar tufayli ko'plab mamlakatlarda kambag'allik va tengsizlik kuchayib bormog'da. Yuzaga kelgan vaziyat ijtimoiy adolati ta'minlashga qaratilgan zarur choralarini belgilab olish va ularni amalga oshirishning aniq, samarali mexanizmlarini tubdan takomillashirishni taqozo etmog'da.

Yana bir fakt: assambleya doirasida qariyb 80 ta tadbir o'tkazilishi rejalashtirilmog'da va ularning har birida bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan mintaqaviy va xalqaro masalalar ko'rib chiqiladi.

Assambleyaning yalpi majlislari, ixtisoslashgan organlari yig'ilishlaridagi muhokamalar, ilgari suriladigan ilg'or g'oya va tashabbuslar, qabul qilinadigan hujjatlar mana shu masalalarga mamlakatlar parlamentlari e'tiborini kuchaytirish imkonini beradi.

— Tanzila Kamolovna, bilishimizcha, bu nufuzli sessiyani boshqarilmoqda. Sir bo'lmasa, 150-yubiley assambleya qaysi tilda olib boriladi? O'zbekiston Senati rahbari sessiyani qaysi tilda olib borishi hammani qiziqitardi, albatta...

— Bilasizmi, buni aytish, bu savolga javob berish menga juda katta faxr va g'urur bag'ishlaydi. Men sessiyalarni o'zbek tilida olib bormoqchiman! Albatta, parlament ishi 12 tilga tarjima qilinadi. Bu tashkiliy ishlar yuqori saviyada bajariladi. Biz Prezidentimiz BMT minbarida o'zbek tilida nutq so'zlaganida qanchalik g'ururlangan edik. Bu yubiley sessiya ham o'zbek tilida boshqariladi. Bu shaxsan mening hayotimda ham juda katta iz qoldiradigan voqea bo'ladi. Bir o'zbek farzandi, o'zbek ayoli, shu yurtning, o'zbek millatining vakili sifatida menga ulkan iftixor bag'ishlaydi...

— Albatta, mazkur xalqaro anjumana shu yurt fuqarosi sifatida har birimiz uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Anjumana ishida muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

Husan ERMATOV suhbatlashdi.



Kun mavzusi

# YANGI UMID VA IMKONLAR SARI DADIL QADAM

**Yurtimizning ko'ha va hamisha navqiron shahri — Samarqand yana bir tarixiy anjumanga mezbonlik qildi. Ming yillar davomida ilm-fan, san'at, falsafa va savdo markazi bo'lib kelgan mazkur shaharda o'tgan "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti chinakam tarixiy ahamiyatga ega.**



**Qo'ng'irovboy SHARIPOV, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri**

Ilk bor Markaziy Osiyoning besh davlati va Yevropa Ittifoqi rahbarlari bir joyda yig'ilib, ikki mintaqa davlatlari tarixiy sheriklik munosabatlarining yangi yo'nalishlarini belgilash yo'lidagi azm-u qaror hozirgi global geosiyosiy beqarorlik, iqtisodiy xavf-xatarlar va ekologik muammolar hukm surayotgan davrimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbarining mazkur sammit doirasida Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan uchrashuvi O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, madaniy va ijtimoiy sohalarida ham yangi davr boshlanayotganini ko'rsatadi.

Yevropa Ittifoqi bilan aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish, "yashil" energetika, innovatsiyalar va raqamlashtirish kabi zamonaviy yo'nalishlarga e'tibor qaratish O'zbekistonning global iqtisodiy raqobatga kirishishi yo'lidagi muhim qadamdir. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarini qo'llab-quvvatlashi va Markaziy Osiyoda qo'shnihilikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatini yuksak baholashi O'zbekistonning strategik rivojlanish yo'nalishlarini yanada rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Davlatimizning iqtisodiy rivojlanishi va kelajagi uchun eng muhim yo'nalishlardan biri — kadrlar tayyorlash va kasbiy ta'lim sohasidagi islohotlar to'g'risida so'z yuritarkanmiz, Yevropa Ittifoqi bilan bu borada katta ahamiyatga ega dasturlar va loyihalar amalga oshirilayotganini qayd etish lozim. Zero, aynan shu hamkorlik mamlakatimiz kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda juda muhim.

Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan va UNESCO tomonidan amalga oshirilayotgan "Qishloq joylarda yoshlarning ishga joylashish qobiliyatlarini rivojlantirish" loyihasi O'zbekistonning qishloq hududlaridagi yoshlarning mehnat bozorida imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan. Bu loyiha, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida ish o'rnlari ochish va kasbiy ko'nikmalarni oshirishga ko'maklashadi.

Sifatli kadrlar tayyorlash, agrar sohadagi ish o'rnlarni kengaytirish, shuningdek, qishloq joylardagi aholi uchun yangi ish

Loyiha 2022-2027-yillarga mo'ljallangan, Yevropaning ta'lim jamg'armalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu loyiha Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekistonda ta'lim va ishga joylashish tizimini sifat jihatidan takomillashtirishga yordam beradi. Shuningdek, har bir mamlakatda hamda mintaqaviy darajada inkluziv muloqot va hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratish va mehnat bozoriga integratsiyalashishni osonlashtiradi.

Budjedi 10 million yevro bo'lgan mazkur loyiha COVID-19 pandemiyasi davridan keyin Markaziy Osiyoning tiklanishiga yordam berish, kasbiy ta'lim va ishga joylashishni rivojlantirish orqali mintaqadagi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Prezidentimiz Samarqanddagi "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti oldidan "Euronews" telekanaliga bergan eksklyuziv intervyusida Afg'onistonga ta'lim sohasida yordam berishni davom ettirishni mamlakatimiz uchun birinchi galdagi vazifa deb ta'kidladi. Darhaqiqat, O'zbekistonning Afg'oniston bilan ta'lim sohasidagi hamkorligi hamisha strategik ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Shu maqsadda amalga oshirilayotgan loyihalar, ayniqsa, afg'on ayollarini o'qitish orqali ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish g'oyat muhim.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida universitetlararo aloqalarni rivojlantirishda "Erasmus" Yevropa ta'lim dasturining qo'shma loyihalarida ishtirok etish alohida o'rin tutadi. Ko'p yillar davomida Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston universitetlari Yevropa Ittifoqining ko'plab ta'lim loyihalarida qatnashib, oliy ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha hamkorlikning ijobiy tajribasini jamlagan.

O'tgan yillarda yurtimizdagi 55 ta oliy ta'lim muassasasi va 34 ta akademik bo'lmagan tuzilmalar, jumladan, vazirliklar, muassasalar va ishlab chiqarish birlashmalari ishtirokida umumiy qiymati 34 million yevrodan ortiq bo'lgan 87 ta TEMPUS loyihasi amalga oshirildi.

Umummintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantirish, shuningdek, madaniy-gumanitar va ta'lim bo'yicha almashuvlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hamkorlikdagi ishlarimizni alohida ta'kidlamoqchiman. Biz mamlakatlarimizda yetakchi milliy o'quv muassasalarining filiallarini ochyapmiz.

"Erasmus+" dasturi oliy ta'lim muassasalari talabalari, doktorantlari, o'qituvchilari va xodimlari uchun ikki tomonlama akademik almashinuv dasturlari, kunduzgi magistratura va doktorantura yo'nalishi bo'yicha Yevropa universitetlarida qisqa muddatli o'qish yoki qo'shimcha malaka oshirish kurslarini o'tash uchun qator imkoniyatlarini taqdim etib kelmoqda. Yevropa universitetlari bilan hamkorlikda mamlakat OTMLari jamoalari salohiyatini rivojlantirish loyihalarida ishtirok etishi mumkin.

"Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitida davlatimiz rahbari inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalar ikki mintaqahamkorligini rivojlantirishda muhim o'rin tutishga alohida urg'u berdi. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha "Erasmus+" dasturi doirasida mintaqahamkorlik uchun maxsus kvotalar joriy etilishi ushbu maqsadga erishishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Prezidentimiz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ilmiy-ta'limiy sohadagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida O'zbekistonda "Ufuq — Yevropa" dasturi ofisini ochishga tayyor ekanini bildirdi.

Sun'iy intellekt, "katta ma'lumotlar", raqamlashtirish va kosmik tadqiqotlar sohasida ilmiy-texnologik almashinuv bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqish tashabbusi ilgari



# ISHONCHGA ASOSLANGAN KELAJAK



**Sohibjon TOPILDIYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshtaning ta'kidlashicha, ayni payt tartibsizlik va bo'linish kuchaygan dunyoda yashayapmiz. Bunday vaqtda Yevropa Ittifoqi uchun yagona to'g'ri yo'l mustahkam hamkorlik o'rnatish orqali tinchlik va farovonlikni ta'minlashdir.

Ko'p qutbli dunyo sharoitida yanada faol va aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik zarur, — deydi Antoniu Koshta. — "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti xalqaro huquq mezoniga to'liq rioya qilgan holda tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanish yo'lidagi sheriklikni mustahkamlashga nisbatan qat'iy qarashimizni tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi yuqori darajadagi munosabati faollashirdi. Yevropa diplomatiyasi rahbari Jozep Borrel Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi investorlari forumida o'timshidagi qaramlilni yengib o'tish hamda energiya va ta'minot zanjirlarida muqobil variantlarni topish uchun mintaqalar o'rtasidagi amaliy aloqalarga ko'proq sarmona kiritish kerakligini aytdi.

Geosiyosiy vaziyat tez o'zgarayotgan hozirgi sharoitda Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi munosabatlari strategik jihatdan tobora mustahkamlanib, mintaqalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni davlatimiz rahbarining Samarqandda 3-4-aprel kunlari bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti oldidan "Euronews"ga bergan eksklyuziv intervyusida aytgan fikrlari ham yaqqol tasdiqlaydi. Zero, intervyuda qayd etilganidek, "O'zbekiston Italiya, Vengriya va Fransiya bilan strategik sheriklik o'rnatdi. Germaniya va Markaziy Osiyo mamlakatlari esa mintaqaviy strategik sheriklarga aylandi. Bugun Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo va investitsiya aloqalarini izchil rivojlantirmoqda. Oxirgi yetti yilda Markaziy Osiyo mamlakatlarining YI bilan savdo aylanmasi to'rt barobar oshib, 54 milliard yevroni tashkil etdi".

euro news.

ayni maqsad — mintaqalarimiz o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash, mintaqaviy sheriklik rivojiga yangi sur'at bag'ishlashi bilan ahamiyatli bo'lmoqda.

2023-yil oktyabrda Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari mintaqalararo siyosiy muloqot, savdo, energetika va xavfsizlik kabi sohalarida aloqalarni chuqurlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlagandi.

Yevropa diplomatiyasi rahbarining so'zlariga ko'ra, haqiqiy hamkorlik o'rnatish uchun faqat hukumat amaldorlari o'rtasidagi kelishuvlar yetarli emas, odamlar o'rtasidagi aloqalar ham muhim. — Biz chegaralarni yengib o'tishimiz kerak. Narigi tarafdagi odamlar bilan aloqada bo'lish uchun chegaralardan tashqariga chiqishimiz lozim, — deydi u. — Chegaralar bo'lin, ammo biz ularni ko'maylik. Yevropa Ittifoqida aynan shu holat bo'lmoqda. Bugun Gibraltar dan Helsinkiga borishda ko'plab chegaralar bor. Lekin to'xtashingiz shart emas. Hech kim "Siz kimsiz? Qayerga ketyapsiz? Jomadoningizni oching, qog'ozlaringizni ko'rsating", demaydi. Chegaralar mavjudligicha qoladi, lekin siz ularni ko'rmasiz. Sayohat va almashinuv ancha oson va foydali bo'ladi. Chegaralarni shaffof qilish — butun dunyo qila oladigan ish. Shunda odamlar, tovarlar va xizmatlar bir mamlakatdan boshqasiga imkon qadar oson o'tishi mumkin.

1963-yildan beri o'tkazib kelinayotgan Myunxen xavfsizlik konferensiyasi xalqaro siyosatni muhokama qilish va eng dolzarb global muammolarni hal etishga qaratilgan diplomatik tashabbuslarni taqdim etadigan yetakchi forumdir. U davlat va hukumat rahbarlari, vazirlar, xalqaro va nodavlat tashkilotlar vakillari, shuningdek, sanoat, omamviy axborot vositalari, ilmiy doiralarda hamda fuqarolik jamiyati yetakchilarini bir joyda to'playdi.

Joriy yil 14-16-fevral kunlari "Ko'p qutbillik" shiori ostida 61-Myunxen xavfsizlik konferensiyasi bo'lib o'tdi. Forumda 60 ga yaqin davlat va hukumat rahbarlari, 150 dan ortiq tashqi ishlar hamda mudofaa vazirlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar mas'ullari to'plandi. Konferensiyada 800 dan ziyod kishi, jumladan, ekspertlar, biznes va nodavlat tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda bugun Markaziy Osiyo mintaqasi duch kelayotgan iqlim muammolariga ham e'tibor qarattildi. So'nggi 30 yilda bu yerda harorat jahon bo'yicha o'tacha ko'rsatkichga nisbatan ikki barobar tez ko'tarilib, 1,5 daraja oshgan. Forumda iqlim o'zgarishlari Markaziy Osiyo davlatlari uchun jiddiy xavf tug'dirayotgani ta'kidlandi. Uning asosiy omillari sifatida yemning jadal degradatsiyasi (hududning 37 foizi zarar ko'rgan), muzliklar erishi (ularning hajmi so'nggi 50-60 yilda 30 foiz kamaygan) va suv tanqisligining kuchayishi ekanini aytdi.

2050-yilga borib, mintaqahamkorligining 100 milliondan oshishi kutilayotgani vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Jahon banki prognoziga ko'ra, ushbu omillarning umumiy ta'siri mintaqada qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining 30 foiz pasayishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotchilarning ta'kidicha, ahvolding bunday jiddiyligiga qaramay, Markaziy Osiyo mamlakatlari uzoq vaqt ekologik muammolarni birga hal etish uchun birlashishga tayyor emas edi. Bugun vaziyat tubdan o'zgardi, shubhagumonlar va nosog'lom raqobat o'rini ishonch, o'zaro tushunish va mintaqaning umumiy muammolariga birga yechim izlashga intilish egalladi.

O'zbekistonning yangi tashqi siyosiy konsepsiyasi bu borada salmoqli o'rin tutmoqda. Bu mintaqani jipslashtirishning asosiy omili bo'lib, davlatlararo hamkorlikning noyob modelini shakllantirishga xizmat qildi. Mintaqada iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha sa'y-harakatlarni samarali muvofiqlashtirish maqsadida suv-iqlim muloqoti yo'lga qo'yildi, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti — Green University ochildi. "Yashil kun tartibi" dasturi tasdiqlandi hamda iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha strategiya qabul qilindi.

Shu bilan birga, mamlakatlar xalqaro maydonda o'z sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirmoqda. BMning Dubaydagi iqlim sammiti doirasida Markaziy Osiyoning barcha davlatlari ishtirokida "5 mamlakat — 1 hudud — 1 ovoz" Markaziy Osiyo mintaqaviy pavilyoni tashkil etildi. U mintaqaning yagona ovoziini ilgari surishga xizmat qildi.

Milliy miqyosdagi sa'y-harakatlar haqida gapirar ekanmiz, O'zbekiston resurslarni tejaydigan, "yashil" rivojlanish modeliga o'tish orqali ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashni strategik maqsad qilgan. Mamlakatda sug'oriladigan yemning qariyb 2 million gektarida suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilgan. Bu qishloq xo'jaligida foydalaniladigan maydonning 46 foizidir.

Bundan tashqari, so'nggi besh yilda O'zbekistonda 9,6 gigavattlik zamonaviy energiya quvvatlari ishga tushirildi. 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 16 foizdan 54 foizgacha yetkazish rejalashtirilgan.

Umuman olganda, mintaqada suv-energetika sohasiga sarmoya, innovatsiya va texnologiyalarni jalb etish, shuningdek, soha mutaxassislarini tayyorlash ustuvor vazifalar bo'lib qolmoqda. Bu kabi iqlim o'zgarishlari masalalari Samarqandda bo'lib o'tayotgan ikkinchi yirik xalqaro anjuman — Markaziy Osiyoning global iqlim muammolariga bag'ishlangan konferensiyada muhokama qilinmoqda. Konferensiya doirasida 4-aprel kuni o'tkazilgan muloqotlardan shunday xulosa qilish mumkin, O'zbekiston iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda mintaqa va xalqaro hamkorlarning sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi asosiy maydonga aylandi.

"Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti esa ikki mintaqahamkorligi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi, o'rtadagi masofani yaqinlashtiradi.



**"Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitida davlatimiz rahbari inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalar ikki mintaqahamkorligini rivojlantirishda muhim o'rin tutishga alohida urg'u berdi. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha "Erasmus+" dasturi doirasida mintaqahamkorlik uchun maxsus kvotalar joriy etilishi ushbu maqsadga erishishga xizmat qiladi.**

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



imkoniyatlarini yaratish loyihaning asosiy maqsadlaridir. Loyiha doirasida yoshlarga agrar sohadagi zamonaviy texnologiyalar va ta'lim dasturlarini o'rgatish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish va ish bilan ta'minlash bo'yicha ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi, agrar korxonalar va iqtisodiy rivojlanish sohalarida yangi imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, yoshlar uchun mehnat bozorida yangi yo'nalishlarni ochib beradi.

Yevropa Ittifoqining qo'llab-quvvatlovi bilan Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistondagi yorqin loyihalardan yana biri — "DARYA" ("Markaziy Osiyo yoshlari uchun muloqot va amaliy qadamlar"). U Yevropaning Markaziy Osiyo tarixidagi birinchi mintaqaviy dasturi bo'lib, yoshlarning mehnat bozoriga kirishi, malaka oshirishi va ijtimoiy jamiyatga integratsiyasi imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

BMning Rivojlanish dasturi (PROON) tomonidan 2020-yildan boshlab amalga oshirilayotgan "Afg'on ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali ta'lim olish" loyihasi aynan shu maqsadni ko'zda tutgan edi. Loyiha Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'izistonda amalga oshirilib, afg'on ayollariga zamonaviy ta'lim berish orqali ularning mehnat bozoriga kirishi va kasbiy malaka oshirishini ta'minlamoqda. Loyiha doirasida 10 afg'on ayoli agronomiya yo'nalishi bo'yicha Toshkent davlat agrar universitetida o'qib, diplom oldi. Ushbu loyiha Qozog'iston va Qirg'izistonda ham amalga oshirilib, umumiy hisobda 50 ayol oliy ma'lumotli bo'ldi.

Loyihaning ikkinchi bosqichi 2022-yilda boshlandi. Bu bosqichda 30 afg'on ayol-qiz uchun to'liq stipendiya ajratilganiga qaramay, Afg'onistondagi keskin vaziyat tufayli atigi 19 afg'on ayoli Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida agrobiznes yo'nalishi bo'yicha o'qitildi.

surildi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari mintaqahamkorlikni Yevropaning raqamli ta'lim sohasidagi Harakatlar dasturiga kiritish, shuningdek, yetakchi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sheriklikning "yo'l xaritasi"ni amalga oshirish bo'yicha takliflar bildirdi.

"Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu sammitda muhokama etilgan yangi loyihalar ishtirokchi davlatlar uchun nafaqat ishonchli, balki o'zaro manfaatli hamkorlik asosini mustahkamlaydi. Sammitda ko'rib chiqilayotgan loyihalar, aniq maqsadlarga erishish va istiqboldagi taraqqiyotni ta'minlash uchun yangi umidlar uyg'otadi. Shu orqali Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasida barqaror hamkorlik, umumiy manfaatlar va ishonchga asoslangan to'g'ri yo'lni tanlashga intilish hissi yanada mustahkamlanadi.

Borrelning ta'kidlashicha, hududlarning aloqadorligini oshirish uchun infratuzilma yaratish zarur. Bu iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, qolaversa, bir xil qadriyatlarini himoya qilish orqali hamkorlikni kengaytiruvchi hamda farovon kelajakni ta'minlovchi siyosiy maqsadga xizmat qiladi.

Bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda Markaziy Osiyo bizning eng muhim hamkorimizga aylandi. U chekka hudud bo'lib tuyulgandi, hozir esa siz hamma narsaning markazidasiz. Siz Yevropa va Osiyo o'rtasidagi tamal toshisiz. Yevropa va Osiyo o'rtasidagi barcha muhim narsalar sizdan o'tadi. Shuning uchun ham hamkorlik biz uchun juda muhim, — dedi Jozep Borrel. Diplomating qo'shimcha qilishicha, xavfsizlik va kommunikatsiyalar, energiya va resurslarni diversifikatsiya qilish nuqtayi nazaridan sheriklikni iqtisodiy xavfsizlikni oshiradigan tarzda mustahkamlash zarur. Samarqand sammitida erishilgan kelishuvlar

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bugungi kunda dolzarb ekologik muammolar, xususan, hududlarni yanada ko'kalamzorlashtirish, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, chiqindilar bilan ifloslanishni kamaytirish kabi masalalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Kuni kecha Prezidentimiz Samarqand xalqaro iqlim forumida Orol dengizi qurishining oqibatlarini yumshatish, suvdan oqilona foydalanish, "toza" energiya manbalarini kengaytirish dasturlari doirasida Yevropa tomoni bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilinayotgani, bunday sheriklik Markaziy Osiyoning barqaror "yashil" taraqqiyotiga muhim hissa qo'shishini ta'kidlagi.

## AVLODLARNING XAVFSIZ VA YORQIN ERTASI UCHUN



**Naim OBLUMURODOV,**  
tarix fanlari doktori,  
professor

deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Sal avvalroq — 2018-yilda Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosidagi trust fondiga asos solingan edi.

Prezidentimizning joriy yil 28-martdagi "Orol madaniyat sammitini yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2025-yildan har 18 oyda — bahor yoki kuz fasllarida Orol madaniyat sammiti o'tkazib boriladi. Birinchi Orol madaniyat sammiti Samarqand iqlim forumi bilan uyg'un holda Samarqand va Nukus shaharlarida yuqori saviyada tashkil etildi.

BMTning 2023-yil Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan konferensiyasida O'zbekiston tomonidan Orol madaniyat sammiti loyihasini amalga oshirish tashabbusi ilgari surilgandi. Chunki Orol taqdiri faqat bizgagina emas, balki butun xalqaro hamjamiyatga daxldor masala.

Konferensiya doirasida Orol madaniyat sammiti loyihasining taqdimoti o'tkazilgandi. Bu mahalliy va xalqaro hamjamiyat, yetakchi olimlar, arxitektorlar, rassom va dizaynerlarni birlashtiradigan yangi institut hisoblanadi. Orol madaniyat sammiti doirasida yosh avlodni mintaqadagi vaziyatni yaxshilashga hissa qo'shadigan ko'nikmalarni shakllantirishga undaydigan ta'lim va almashinuv dasturlari, stipendiyalar va stajirovkalar, biodizayn ferma-laboratoriyasi tashkil etiladi. Mintaqani

hududida yerlarni o'zlashtirish, tomchilatib sug'orish tizimini yaratish ishlari, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlari samarali amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, hududda qum ko'chliklarining oldini olish, Orolning qurigan qismidan havoga zaharli aerosol changlarni ko'tarilishini kamaytirish, cho'l sharoitida chidamli va ozuqa o'simliklarini yetishtirish, dengizning qurigan qismini daraxtzo'r va butazorlarga aylantirish yuzasidan salmoqli ishlar bajarildi. So'nggi yillarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi va boshqa idoralar hamkorligida Orolbo'yining 2 million gektardan ortiq cho'l hududlarida qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar ekilgan. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, BMT Taraqqiyot dasturi va Global ekologik fondning qo'shma "Orol dengizi havzasi landshaftining tanazzul yerlarida barqaror hayotni ta'minlashni qo'llab-quvvatlaydigan asos sifatida ko'llar, suv-botqoq va qirg'oqbo'yi hududlarini saqlash hamda boshqarish" hamkorlikdagi loyihasi amalga oshirilmog'da.

Dengiz qurishi oqibatlarini bartaraf etish hamda sayyohlar sonini ko'paytirishga

suv bilan ta'minlash, yangi ekin turlarini yaratish, shuningdek, hududda sho'rlanishni kamaytirish bo'yicha turli texnologiyalar o'rganiladi va ishlab chiqiladi.

Sammit ijodkorlarni mahalliy fermerlar bilan birlashtirib, yangi o'simliklar yetishtirish uchun biodizayn sohasida barqaror aloqalarni o'rnatishi va shu orqali kelgusi 10 yilga mo'ljallangan strategik rejani ishlab chiqishi ma'lum qilindi.

Sammitning mazmun-mohiyati va ahamiyati konferensiya doirasida o'tgan "Suv hamkorlik uchun: suv resurslari sohasida transchegaraviy va xalqaro hamkorlik, suv sohasidagi tarmoqlararo, shu jumladan, ilmiy aloqalar hamda 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish kun tartibining suvga oid maqsadlariga erishish" mavzusidagi sessiyada batafsil ochib berilgandi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida so'z borganda, mintaqani moliyalashtirish, iqtisodiy salohiyatini oshirish, asosiy, aholining salomatligini tiklash, hududda yashil bog'larni yaratish uchun 14 million dollardan ortiq mablag' ajratilganini e'tirof etish joiz.

yumshatish borasidagi ishlar hech qachon to'xtagani yo'q. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ekologiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchilligining oldini olish bundan buyon ham biz uchun dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Biz, hech shubhasiz, ekologik muvozanat, musaffo havo, toza suv, bezavol tabiat tarafdorimiz. Bu masala biz uchun boshqalarga qaraganda nihoyatda dolzarb va muhimdir. Nega deganda, biz dunyodagi eng katta ekologik ofat — Orol fojiasini bevosita o'z boshidan kechirayotgan xalqimiz. Shuning uchun hozirgi vaqtda respublikamizda bebaho ekotimizni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli dasturlar, jumladan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Biz kelgusida bu ishlarni yanada jadal davom ettiramiz. Yangi quriladigan sanoat korxonalar loyihalarida bu masala bo'yicha qattiq nazorat o'rnatiladi. Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ham barcha zarur chora-tadbirlarni ko'ramiz".

Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo'yi hududlarida "yashil qoplama"lar barpo etish, Qoraqalpog'iston Respublikasi

qaratilgan "Orol bo'yida bog'im" loyihasi hayotga tatbiq etilyapti. Unda, asosan, Orol atrofida ko'p yillik buta va o'simliklar, jumladan, saksovullar ekiladi. Shu paytga qadar loyiha doirasida 15 mamlakatda 8 ming nafar ko'ngilli tomonidan million tupdan ortiq daraxt ekildi.

Davlatimiz rahbarining "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralarini to'g'risida"gi qarori hudud taraqqiyotida muhim o'rinni tutadi. Mazkur hujjat bilan 2021-2024-yillarda Orolbo'yi mintaqasiga iqtisodiyot tarmoqlarida resurs tejoychi va yuqori samaraga ega zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish, ekologik

qayd etilishicha, iqlim o'zgarishi mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va sog'liqni saqlash tizimidagi dolzarb muammolarni yanada og'irlashtiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Sho'rlanish sharoitida biodehqonchilik xalqaro markazi — ICBAning moliyaviy ko'magida Orol dengizining qurigan tubidan 10 xildan ortiq tuproq tiplarini bir joyga to'plash va ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadida lizimetrik tadqiqot maydonchasi barpo etildi va tadqiqot ishlari boshlandi.

Kanada mahalliy tashabbuslar fondi — CFLning moliyaviy ko'magida "Orolbo'yi aholisining atrof-muhit va iqlim o'zgarishlariga moslashish masalalari bo'yicha xabardorligini ommaviy axborot vositalari yordamida oshirish" loyihasi bajarildi. Natijada Orol dengizi havzasida 1 milliondan ortiq aholining iqlim o'zgarishiga moslashish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi xabardorligi sezilarli darajada kuchayishiga erishildi.

Orol dengizining qurishi Markaziy Osiyoning ekologik holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarurati yuzaga keltirdi. Orolbo'yi ekologik inqirozi muammolarini muhokama qilish va hal etish uchun turli xalqaro anjuman va sammitlar o'tkazilmoqda. Jumladan, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan forumlar ekologik barqarorlikni ta'minlash va hududda yashovchi aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynamoqda.

Quyosh va shamol energetikasidan foydalanish kengaymoqda, bu esa hududning ekologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilyapti. Bunday tashabbuslar natijasida aholining ekologik tafakkuri o'zgarib, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga e'tibori ortib bormoqda.

Orolbo'yi mintaqasidagi ekoturizm va madaniy turizm uchun katta salohiyatga ega. So'nggi yillarda bu yo'nalishda qator muhim tashabbuslar amalga oshirilyapti. Dengizning qurigan hududida ekoturizm marshrutlari tashkil qilinmoqda. Jumladan, "Orol mo'jizasi" loyihasi doirasida ekologik sayohatlar yo'lga qo'yildi. Madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish, Orolbo'yi hududidagi qadimiy shaharlarga ekskursiyalar uyushtirish, xalq amaliy san'ati ustaxonalarini rivojlantirish va turistik yo'nalishlarni kengaytirish choralarini ko'rilmog'da. Orolbo'yi mintaqasining ekologik va madaniy merosini ommalashtirish uchun xalqaro festivallar tashkil etilmog'da.

Sammit va xalqaro forumlar yordamida ekologik tiklanish, ilmiy hamkorlik va mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rilmog'da. Odamlarning ekologik madaniyatini oshirish, ekoturizm va madaniy merosni asrash bo'yicha yangi tashabbuslar hayotga tatbiq etilmog'da. Bu esa Orolbo'yining nafaqat ekologik tiklanishi, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham xizmat qiladi, albatta.



Orolbo'yida ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish, dengiz qurishining salbiy oqibatlarini

barqarorlikni ta'minlash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ilmiy-innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" hamda ustuvor innovatsion loyihalar ro'yxati tasdiqlandi.

"Yo'l xaritasi"ning 7 yo'nalishdagi 71 ta tadbir uchun turli manbalardan 312 milliard so'm, 22,2 million AQSH dollari, 6 million yevro mablag'lar sarflanishi, shu bilan birga, qarorda 2021-2024-yillarda bajarilishi rejalashtirilgan 65 ta ustuvor innovatsion loyiha uchun turli manbalardan 1,9 trillion so'mga teng mablag' jalb qilinishi, natijada 4,5 mingga ish o'rni yaratilishi belgilandi.

Bugungi kunga kelib atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, global ekologik inqirozga yo'l qo'ymaslik insoniyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu vazifani bajarish esa hamjihatlikni talab etadi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-yanvardagi tegishli qarori bilan Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiyada

**Sammit va xalqaro forumlar yordamida ekologik tiklanish, ilmiy hamkorlik va mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rilmog'da. Odamlarning ekologik madaniyatini oshirish, ekoturizm va madaniy merosni asrash bo'yicha yangi tashabbuslar hayotga tatbiq etilmog'da. Bu esa Orolbo'yining nafaqat ekologik tiklanishi, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham xizmat qiladi, albatta.**



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasini

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 446. 36811 nusxada bostildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova  
Musahhih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy